ALALIYA NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALAR BILISH JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

I.S.Isodullayeva *- FarDU o‘qituvchisi*
M.I.Jakbarova *- FarDU talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada alaliya nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarning bilish jarayonlari, jumladan, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari yoritib beriladi. Shuningdek, nutq yetishmovchiligining bolaning umumiy psixik rivojlanishiga ta’siri va pedagogik-psixologik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: alaliya, nutq nuqsoni, bilish jarayonlari, idrok, xotira, diqqat, tafakkur.

Nutq insonning bilish faoliyati va ijtimoiy moslashuvida muhim vosita hisoblanadi. Nutq orqali bola atrof-muhitni anglaydi, bilimlarni o‘zlashtiradi, muloqot qiladi va fikrlash jarayonlarini rivojlantiradi. Nutq rivojlanishidagi jiddiy buzilishlardan biri bo‘lgan alaliya markaziy nerv tizimining organik zararlanishi natijasida yuzaga keladi va bola nutqining to‘liq yoki qisman shakllanmasligi bilan xarakterlanadi. Alaliya nafaqat nutq faoliyatiga, balki bolaning barcha bilish jarayonlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda alaliya eshitish qobiliyati va intellektual salohiyati nisbatan saqlangan holda nutqning rivojlanmasligi yoki juda sust rivojlanishi bilan ifodalanadigan murakkab nutq nuqsoni sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchilar (L.S. Volkova, R.E. Levina, E.M. Mastjukova) alaliyani bosh miya po‘stlog‘idagi nutq zonalarining zararlanishi bilan izohlaydilar. U asosan erta bolalik davrida bosh miya po‘stlog‘ining nutq markazlari zararlanishi natijasida yuzaga keladi.

Nutq nuqsoniga ega bolalarda bilish jarayonlari murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular nutq muammolarining rivojlanishiga va bolalarning umumiy bilish faoliyatiga ta’sir qiluvchi asosiy omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq va bilish jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, nutq rivojlanishining kechikishi yoki buzilishi bilan bog‘liq muammolar nafaqat kommunikatsiya qobiliyatiga, balki bolalarning diqqat, xotira, muammo hal qilish va tushunish kabi bilish qobiliyatlariga ham ta’sir va ularning ta’lim jarayonlarida muvaffaqiyatga erishish uchun muhimdir. Quyida ularning bilish jarayonlarida kuzatiladigan muammolarni ko‘rib chiqamiz.

Alaliya nutq nuqsoniga ega bolalarda idrok jarayoni notekis rivojlangan bo‘ladi. Ayniqsa eshituv idroki va nutqiy tovushlarni farqlash qobiliyati yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi. Bola tovushlarni eshitsa-da, ularni mazmun jihatidan

anglashda qiynaladi. Bu holat fonematik idrokning sust rivojlanishiga olib keladi. Ko‘ruv idroki nisbatan yaxshiroq rivojlangan bo‘lsa-da, predmetlarning muhim belgilarini umumlashtirishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Idrokning parchalanib rivojlanishi ta’lim jarayonida bilimlarni tizimli o‘zlashtirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Alaliyalı bolalarda diqqatning ixtiyoriy shakli yetarlicha rivojlanmagan bo‘ladi. Ular diqqatni uzoq vaqt davomida bir faoliyatga jamlay olmaydi, tez chalg‘iydi va tashqi qo‘zg‘atuvchilarga haddan tashqari sezgir bo‘ladi. Nutqiy ko‘rsatmalarni tushunmaslik diqqatning barqarorligini yanada pasaytiradi.Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday bolalarda diqqat ko‘proq ko‘rgazmali va emotsional jihatdan qiziqarli materiallar orqali faollashadi. Shu sababli pedagogik jarayonda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Ushbu nutq nuqsoniga ega bolalarda xotiraning barcha turlari notekis rivojlangan bo‘lib, ayniqsa **nutqiy-mantiqiy xotira** zaiflashgan bo‘ladi. So‘zlar, gaplar va og‘zaki ko‘rsatmalarni eslab qolish hamda qayta tiklash jarayonlari qiyinchilik bilan amalga oshadi.Biroq vizual va motor xotira nisbatan yaxshi saqlangan bo‘lishi mumkin. Bu holat alaliyalı bolalar bilan ishlashda ko‘rgazmali vositalar, piktogrammalar, harakatli mashqlarni keng qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Tasavvur nutq bilan bevosita bog‘liq jarayon bo‘lgani sababli alaliyalı bolalarda u yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi. Ertak, hikoya va obrazli tasvirlarni tushunish qiyinchilik tug‘diradi. Biroq rasm chizish, qurish-yasash, konstruktiv o‘yinlar orqali tasavvur jarayonini rivojlantirish mumkin.

Nutq nuqsoniga ega bolalarda bilish jarayonlarini yaxshilash uchun maxsus pedagogik texnikalar va terapiyalar muhim ahamiyatga ega. Bu texnikalar yordamida bolalarning so‘zlash, tushunish, diqqat va xotira kabi bilish jarayonlarini rivojlantirish mumkin. Masalan, vizual yordamlar, o‘yinlar va interaktiv metodlar, shuningdek, nutq va muloqotga qaratilgan terapiyalar qo‘llaniladi. Bu usullar bolalarning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan holda, ularning muammolarini hal qilishda muhim yordam ko‘rsatadi.

Nutq muammolarini korreksiyalash uchun olib boriladigan terapiya va ta’lim jarayonlari individual bo‘lishi va bolalarning rivojlanish bosqichlariga mos kelishi muhimdir. Bu yondashuvlar yordamida, nutq muammolari bo‘lgan bolalar, o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga va ijtimoiy muhitda muvaffaqi-yatli faoliyat yuritishga imkoniyat yaratadi. Nutq nuqsoni bilan bolalarda muammolarni tahlil qilish metodlari nutq nuqsoniga ega bolalarning bilish jarayonlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodlar bolalarning nutq va muloqotdagi muammolarini aniqroq tushunishga, ularning bilish jarayonlaridagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlashga imkon yaratadi. Nutq nuqsoni bilan bolalarda muammolarni tahlil qilishda keng qo‘llaniladigan metodlar orasida psixologik, pedagogik va tibbiy

usullar mavjud bo‘lib, ular orqali bolalarning diqqat, xotira, muammo hal qilish va tushunish qobiliyatlari baholanadi.

Birinchidan, psixologik metodlar bolalarning umumiy ruhiy holatini va bilish jarayonlarini o‘rganish uchun muhimdir. Bu usulda individual yoki guruh shaklida o‘tkaziladigan psixologik testlar, intervyular va observatsiyalar yordamida bolalarning diqqat-e'tiborini, xotira va muammo hal qilish qobiliyatini aniqlash mumkin. Masalan, bolalarning diqqatini saqlash va uni yo‘naltash qobiliyatini baholash uchun ko‘pincha rangli va shaklli testlar, yoki faoliyatlarni bajarish jarayonida kuzatuvlar o‘tkaziladi. Bu metodlar, shuningdek, bolalarning nutq nuqsoni bilan bog‘liq muammolarining sabablarini aniqlashda yordam beradi, chunki nutq va bilish jarayonlari o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

Ikkinchidan, pedagogik metodlar bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirish va muammolarni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu usullarga individual yoki kichik guruhlarda olib boriladigan pedagogik tekshiruvlar, o‘quv faoliyatlari va o‘qituvchining baholashlari kiradi. Pedagogik metodlar yordamida bolalarning tushunish darajasi, muammo yechish strategiyalari va yangi ma’lumotlarni qabul qilish qobiliyati baholanadi. Nutq nuqsoniga ega bolalarda, ayniqsa, tushunish va e'tibor bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelganda, bu metodlar ularni individual tarzda o‘rganish va moslashtirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda yordam beradi.

Nutq nuqsoniga ega bolalarda muammolarni tahlil qilishda metodlarning integratsiyasi muhimdir. Har bir usul o‘zining afzalliklari va cheklovlariga ega bo‘lib, ular birgalikda ishlatilganda, bolalarning bilish jarayonlarini yanada to‘liq va aniq baholash imkonini beradi. Masalan, psixologik testlar bilan pedagogik baholash natijalari birlashtirilganda, bolaning umumiy ruhiy va kognitiv holati haqida kengroq tasavvur hosil bo‘ladi. Shu bilan birga, neyrodiagnostik usullar bilan tibbiy baholash natijalari, nutq nuqsonining biologik asoslarini aniqlashda yordam beradi.

Muayyan metodlarning qo‘llanilishi bolalarning individual ehtiyojlariga moslashtirilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ularning muammolarini yanada samarali hal qilishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, tahlil qilish metodlarining muntazam va uzluksiz qo‘llanilishi, bolalarda nutq va bilish jarayonlarining rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, kechikishlarni aniqlash va individual terapiya dasturlarini moslashtirish uchun muhim omil bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, alaliya nutq nuqsoniga ega bolalarda bilish jarayonlari o‘ziga xos va notekis rivojlanish xususiyatlariga ega. Nutq buzilishi idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur jarayonlarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Vaqtida va to‘g‘ri tashkil etilgan korreksion-pedagogik ishlar orqali ushbu bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish va ta’lim jarayoniga samarali jalb etish mumkin.

Foydalanilagan adabiyotlar:

1. Qodirov, A. B. Nutq nuqsoniga ega bolalarda bilish jarayonlari. Tibbiyot va pedagogika, 2020.

2. Karimova, D. X. Nutq rivojlanishi va bilish jarayonlari. O‘zbekiston pedagogik instituti nashriyoti, 2018.

3. Tursunov, S. T., & Islomov, A. B. Nutq muammolari va ularning bilishga ta'siri. Xalq ta'limi jurnali, 2021

4. Yusupov, M. M. Nutq nuqsonlari bilan bolalarda muammolarni tahlil qilish metodlari. O‘zbekiston tibbiyot va psixologiya jurnali

5. Nurmonov A., Qodirov R**.** Maxsus pedagogika va logopediya asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

6. Muminov S.M**.** Maxsus psixologiya. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

7.I.S.Isodullayeva Nutqning ontogenezda rivojlanishi.-Farg‘ona 2024